



QADIMGI QANG' DAVLATINING HORIIY MUALLIFLAR

ASARLARIDA O'RGANILISH TARIXSHUNOSLIGI

Normo'minov Dilbek Ilyos o'g'li

Ibragimov Anvar Sodiq o'g'li

Shahrisabz Davlat Pedagogika Institutu

Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yunalishi

1-kurs 1-24 guruh Talabalari

ABSTRACT: This article provides information about the Ancient State of Kang. This article describes the location of this state, the time of its origin, the most prosperous period and its rulers. In addition, trade, relations with other countries, and the socio-economic life of the Kan state are also covered.

KEY WORDS: Kangdez, Bitian, Yuezhi, Kanka,

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Qadimgi Qang' davlati haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqolada bu davlatning joylashgan o'rni, paydo bo'lgan vaqti, eng gullagan davri va hukmdorlari haqida so'z ketadi. Bundan tashqari, Qang' davlatining savdo-sotig'i, boshqa davlatlar bilan aloqalari, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haam yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR: Qang'dez, Bityan, yuechji, kanka,

АННОТАЦИЯ: В этой статье представлена информация о Древнем государстве Кан. В данной статье рассказывается о местонахождении этого государства, времени его возникновения, наиболее процветающем периоде и его правителях. Кроме того, освещены также торговля, отношения с другими странами, социально-экономическая жизнь государства Кан.



КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Кангдез, Битьян, Юечжи, Канка,

Kirish. Parfiya, Yuechji–Kushon davlatlari kabi kuchli chorvador xalqlar asos solingan. Mil.avv III asrda shakllangan bu davlat o'zining yuksalgan vaqtida milodiy I- II asrlar hukmronligini sharqda Farg'onadan Yettisuvgacha, Orol dengizidan Ural bo'ylarigacha, g'arbda Sirdaryo shimolidagi cho'llardan So'g'd o'lkasining janubiy chegaralariga qadar kadimgi dunyoning davlatlaridan biri-Kushon Imperiyasi bilan chegaradosh bo'lgan. Qadimgi O'zbekistanning asosiy viloyatlari o'sha davrda Qang' davlatining asosiy o'zagini tashkil, g'arb sivilizatsiyalari va Buyuk dasht, Xitoy o'rtasidan joy olgan. Janubda Kushon podsholig kabi, Qang' ham ayni shu qarama-qarshi dinlar munosabatlariga ham ta'sir kursatgan. Toshkent vohasida va Janubiy Qozog'istonda olib borilgan arxeolog izlanishlar juda boy materiallar qo'lga chiqadi. Bu materiallarning ko'pchiligi qang'arlar davriga oid bo'lib, (miloddan oldingi IV-milodiy V asr o'rtalarida) jamoa hayotini va madaniyatini o'rganishda bebaho manba hisoblanadi. Arxeologik topilmalar mutaxassislar tomonidan berilgan jiddiy o'rganilgan, natijada so'g'd ishlarida e'lon qilingan. Arxaeologik tadqiqotlardan B. A. Litvinskiyning ishlari alohida e'tiborga loyiq. Bu olim o'z ishlarida qang'ar (kang'uylar) birinchi ajdodlari so'g'dlardan narida yashagan deb ta'kidlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Ushbu maqolada asosan Qang' davlati haqida ma'lumotlar berilgan. Asosan, bu maqolani yozishda K.Shoniyozovning "Qang' davlati va qang'lilar", Abdulahad Xo'jayevning "O'zbekiston tarixi", O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Alisher Doniyorov "Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi" kitoblaridan foydalanildi. Bu maqolada asosan, bu davlatning paydo bo'lish vaqti va eng kuchaygan davrlari haqida so'z ketadi.

TAHLIL VA NATIJALAR: Xitoy manbalariga ko'ra, Qang' davlatining Janubiy hududiga hozirgi O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on va



Urganch tumanlari kirgan bo'lib, uning chegarasi Amudaryoga borib taqaladi. Janubiy da — Dayruzie (Dayuechji) davlati joylashgan. Kushon podsholigi tashkil topishi va uning hududi kengayishi munosabati bilan Qang' davlatining Janubiy chegarasi o'zgargan. Shu tufayli miloddan avvalgi 2-asrda Xitoy elchisi Chjan Syan'farg'onaliklar yordamida Qang' davlati orqali Dayruzie (Dayuechji) davlatiga borgan. Qang' davlatining qishki poytaxt shaharlari Bityan va Sushie bo'lgan. Bityan Binkat shahri (boshqa manbalarga ko'ra, Qanqa) o'rnida, Sushie esa hozirgi Parkent tumanidagi So'qoq (Sukeeke) nomli joyga to'g'ri keladi. Qang' davlatining yozgi qarorgohlari Issiqko'l bo'ylab, hozirgi Qoraqo'l (Prjevalsk) yonida bo'lgan. Qang' davlatining qo'shini 80-90 ming jangchini tashkil etgan. Qang' davlati aholisining urf-odatları Ruzie (Yueszi) davlati aholisi urf-odatidan farq qilmagan.[1]

O'z navbatida, ruzieliklar urf-odatları hunlarnnkiga o'xshash bo'lgan. Qang' davlati hukmdori va Hun xoqonligi tangriquti o'rtasida qudachilik munosabatlari o'rnatilgan. Shu tufayli Xitoylar hunlar ustidan g'olib chiqib, ularni o'z joylaridan siqib chiqarganida, hun xoqoni o'z avlodi bilan Qang' davlatiga ko'chib kelgan. Qang' davlatining ko'chmanchi aholisi chorvachilik, shaharlar va ularning atrofida yashagan o'troq aholi esa dehqonchilik, hunarmandchilik va savdosotiqbilan shug'ullangan. Ular Buyuk ipak yo'lining xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarda muhim o'rin tutganlar. Qang' davlati hududida jiddiy migratsion jarayonlar sodir bo'lib turgan. Milodiy 5-asrning 2-yarmida Qang' davlati parchalanib, uning hududida Shosh (Shi), Samarqand (Kan), Maymurg' (Mi), Shahrisabz (Shi), Kattaqo'rg'on (Xe), Ushrushona (Tsao) kabi kichik davlatlar tashkil topgan. Abdulahad Xo'jayev Qang' davlatining qo'shini 80-90 ming jangchidan iborat bo'lganligini yozadi. Bu davlat aholisining urf-odatları xunnlarnikiga o'xshash bo'lgan. Qang' davlati hukmdori va xunn hoqonligi tangriquti o'rtasida qudachilik munosabatlari o'rnatilgan. Shu tufayli xitoylar hunlar ustidan g'olib chiqib, ularni o'z joyidan siqib chiqarganida, hun hoqoni o'z avlodi bilan Qang' davlatiga ko'chib kelgan. [2]



Qang' davlatining ko'chmanchi aholisi chorvachilik, shaharlar va ularning atrofida yashagan o'troq aholi esa dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Chjan Syanning yozishicha, Qang' 90.000 kishilik qo'shinga, Syan Xanshunning yozishicha, 12.000 kishilik qo'shinga ega bo'lgan. "Avesto"da Qang' (Qangxa tarzida) bir marotaba tilga olingan. Yashtlarning beshinchibobida, Tusa ismli (ikki gildirakli jang aravasida jang qilgan, eronlik) jangchi Ardvi Suradan muqaddas Qangxadagi jangda, (Turon mamlakati bo'lgan) qorqmas Varsakining avlodlarini yengishda yordam so'raydi. Qang' davlati to'g'risida birmuncha batafsil ma'lumot beruvchi xitoy manbalarida Qang'uy deb ataladi. Firdavsiyning "Shahnoma" asarida Qang'diz afsonaviy Siyovushning yurti deb ham ataladi. Ma'lumki, Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Siyovush afriq'iyalar sulolasining asoschisi bo'lib, ular mil.avv XI asrdan to milodiy X asrgacha Xorazmda hukmronlik qilganlar Qang' davlatining qayerda joylashgani haqida Xorazm tarixiy bilimdon S.P.Tolstov Chjan Cyanning Qang'uy Alanlar yurtidan 2000 km uzoqlikda joylashgan, degan ma'lumotlarga ko'ra, Qang'uy davlatining markazi Xorazmgina bo'lishi mumkinligi haqida fikr bildiradi. Chunki o'sha davrda alanlar Shimoliy Kasbiy bo'ylarida yashagan.[3]

Qang' davlati muammosini aniqlashda " Ot mingan chavandoz " tasviri tushirilgan o'sha davr tangalari muhim ahamiyatga ega Ma'lumki , bunday tangalar qadimgi Xorazm va unga tutash hududlarda topilgan. S.P.Tolstov fikriga ko'ra Ot mingan chavandoz bu Xudo sifatida ilohiylashtirilgan Siyovush tasviri. Firdavsiyning "Shohnoma " kitobiga ko'ra, Siyovush o'z qahramonlik ishlarini Qang'a shahrida qilgan. Siyovush esa "Avesto"dagi Imma timsoli hisoblanadi. Shulardan kelib chiqib, S.P. Tolstov Qang'a bu Xorazm deb yana bir marta xulosa qiladi. Qang so'zining ma'nosi, uning kelib chiqishi haqida olimlar orasida turlicha fikrlar mavjud Markvartning fikriga ko'ra , qang' ikki so'zdan olingan, qan (daryo) va ar - kishini bildiruvchi so'zlardan kelib chiqqan. Demakki, "qang'ar" Qang' daryosidan chiqqan kishilar degan ma'noni bildiradi ya'ni uni daryo nomi



bilan bog'laydi.. Pulleyblink fikricha qang'a toxar tilidagi tosh so'zidan olingan. Klashtorniy esa Qang' (daryoning nomi) - ar (kishi) ya'ni Qang' daryosida yashovchi kishilar degan ma'noni bildiradi degan fikrni bildiradi. [4]

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Qang' davlati mil.avv. III asrda paydo bo'lgan O'rta Osiyoda joylashgan davlat hisoblanadi. Bu davlat haqida Eshniyozovning kitobida juda ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Misol uchun, mil.avv II asrda yuksak taraqqiy etgan Qang' davlati ijtimoiy-iqtisodiy holati, savdo-sotig'i haqida ma'lumotlar berilgan. Qang' davlati aholisi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Xitoy tarixchilari tomonidan yozilgan ma'lumotlarga qarasa, Qang' davlati harbiy jihatdan ham ancha qudratli bo'lganligini ko'ramiz. Masalan Chjan Syan Qang' davlatining qo'shinini 90 ming kishidan iboratligini yozadi. Qang' davlati VI asrdan ziyodroq hukm surgan davlat hisoblanadi Qang' davlati Milodiy III srda ko'chmanchi qabilalar hujumi natijasida parchalanib ketadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K.Shoniyoov "Qang' davlati va qang'lilar", Toshkent 1990-yil.
2. Abdulahad Xo'jayevning "O'zbekiston tarixi", Toshkent «Donishmand ziyosi» 2021-yil
3. Q.Usmonov, M.Sodiqova, S.Burhonov "O'zbekiston tarixi" Toshkent 2006-yil.
4. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
5. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.



6. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
7. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
8. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
9. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
10. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
11. Begaliyev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
12. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
13. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
14. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
15. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.